

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH AHAMIYATLARI**

*Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 32-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Tojiboyeva Gavhar*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda axborot texnologiyasidan samarali foydalanish imkoniyatlari o'quvchilarida aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechishi hamda intellektual salohiyatini rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** AKT, boshlang'ich ta'lim, samarali, zamonaviy, texnologiya

Mamlakatimizda amalda bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining hal qiluvchi bosqichlaridan sanaladi. Chunki ushbu bosqich o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarga fan yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilimlar beradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikga barham berish dars jarayonini turli tumanligini, rang barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish va tadbiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib, o'quv

jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lif jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quv jarayonini axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda shakllantirish o'qituvchidan o'quvchiga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil tarzda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish (o'quv masalalarini qo'yish, amaliy predmetli mazmunini aniqlash, har bitta alohida amallarning bajarilishi bo'yicha namunalarni ko'rsatib berish, har bir harakat va amallarning bajarilishini nazorat qilib borish, masalaning yechilganligini, tugallanganligini baholash) uzluksiz tarzda ketma-ket kechadigan jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalariga quidagilarni kiritish mumkin: - multimedya, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish;

- bir alifboden ikkinchi bir alifboga o'tkazish;
- kompyuterli test nazorati;
- skaner texnologiyasi;
- internet; - elektron pochta;
- Web - texnologiya;
- elektron virtual kutubxona;
- masofadan turib ta'lif berish;
- taqdim etish texnologiyasi;

Boshlang'ich sinflarda kompyuterli o'qitish - predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini

rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'larning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi. Multimedia texnologiyasi o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda o'quvchini o'quv fani uni materialiga bo'lgan qiziqishni oshirishga, ilmiy-amaliy bilimini o'stirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida o'ta muhim hisoblanib, o'quvchini yanada chuqurroq nazariy-amaliy bilim olishiga mustaqil bilim izlashiga xizmat qiluvchi doimiy ravishda o'zini matematik, texnik, didaktik, psixologik kabi imkoniyatlarini tinimsiz rivojlantirib boruvchi didaktik vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, multimedia matnli, tasvirli, ovozli, animatsiyali, grafikli, jadvalli va boshqa axborotlarni o'z ichiga oladi. Multimediadan ta'lim jarayonida foydalanish uchun didaktik vosita sifatida maxsus slaydlar, taqdimotlar, kompakt disklar va elektron qo'llanmalar tayyorlanadi. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodi, ayniqlsa, ertak, topishmoq va maqollarni o'qitishga o'rgatishda AKT ning ro'li juda katta xisoblanadi. Darslikda berilgan topishmoqlarning javoblari rasm orqali ko'rsatilgan. Bu esa didaktikaning ko'rsatmalilik tamoyilini qo'llashni, og'zaki bayon etishni qulaylashtiradi va o'quvchi fikrini, diqqatining barqarorligini oshiradi. O'quvchi topishmoq matnini o'qir ekan, uning matni yonidagi rasmni AKT vositalari o'rqli ko'radi va osongina idrok etadi. Topishmoqda yashirin berilgan predmetning xususiyati esa uzoq esda saqlanadi. Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi-o'qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod, 2010
2. Shodiyeva M., Ne'metova F. Muammoli o'qitish // Boshlang'ich ta'lim, 2009.
3. Yo'ldoshev J.G'. , Yo"ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). - T., 2008
4. Karimov, K. (2023). OFFICIALS OF JUDICIAL INSTITUTIONS AND HISTORY OF THEIR FORMATION. Абай атындағы ҚазҰПУ-нің ХАБАРШЫСЫ, «Юриспруденция» сериясы.
5. Karimov, K. (2021). Qozilik mahkamalari hujjatlariga oid ayrim mulohazalar. Sohibqiron yulduzları.